

“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i**

Sh.A.Abdiyev



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi**

BAYONI №4

2023- yil 8- may

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiyev Boshqarma boshlig‘i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining birinchi
o‘rinbosari, Komissiya a‘zolari,
boshqarma hamda shahar va tuman
statistika bo‘limi xodimlari (ro‘yxat
bo‘yicha)

KUN TARTIBI

**“Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z
vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish” mavzularini muhokama etish to‘g‘risida.**

(Sh.Abdiyev, T.Sidikov, M.Salimov, Z.Davronov, U.Sadirov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig‘i Sh.Abdiyev so‘zga chiqib, “Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish” mavzulari yuzasidan axboroti eshitildi.

Shuningdek, bugungi kunda butun jahon miqyosida ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini ta’kidlab o‘tdi.

Ayni paytda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilganligi va bu borada har birimizdan hushyorlik va mas’uliyatlilik talab etilishi yuzasidan mas’ullarga nisbatan tegishli ko‘rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda avvalo aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligini ta’kidlab o‘tdi.

Jumladan, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish – kundalik hayot tarzimizga aylanishi shartligi hamda bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman har bir fuqaro safarbar etilishi zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va noqonuniy harakatlar to‘g‘risida @antikorrupsiyastatbot maxsus telegram botiga yoki ishonch telefonlar orqali xabar berish mumkinligini ta’kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i Sh.Abdiyevning "Biz korrupsiyaga qarshimiz" va "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish" mavzulari yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov